

YO'NALMA HARAKAT FE'LLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI MASALASI

Nashirova Dilnoza Buriyevna

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
mustaqil tadqiqotchisi*

E-mail: dilnozanashirova1988@gmail.com

tel: +998978510084

Annotatsiya: *Leksikografiyada so'zlarning muayyan guruhlarini lug'atlarda berish, ularni ma'lum bir turlarga ajratishga qaratilgan ma'lumotlar tilshunoslikka oid ada-biyotlarda u qadar ko'p uchramaydi. Zero, bu turdagi lug'atlar tilshunoslikda nisba-tan yangi bo'lgan muammolar sirasiga kiradi. Yo'nalma harakat fe'llarining lug'at-larda berilishi tahlili bu so'zlarning leksik mohiyatini, grammatik imkoniyatlarini, pragmatik xususiyatlarini to'liqroq ochishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *yo'nalma harakat, fe'llar, lug'atlar, leksikografiya, leksik ma'no.*

Аннотация: *В лексикографии в лингвистической литературе встречается не так много информации, направленной на предоставление в словарях определенных групп слов и разделение их на определенные типы. Ведь словари такого типа относительно новая проблема в лингвистике. Анализ глаголов направленного действия в словарях служит более полному раскрытию лексической сущности, грамматических возможностей и прагматических особенностей этих слов.*

Ключевые слова: *направленное движение, глаголы, словари, лексикография, лексическое значение.*

Abstract: *In lexicography, there is not much information in the linguistic literature aimed at providing certain groups of words in dictionaries and dividing them into certain types. After all, dictionaries of this type are a relatively new problem in linguistics. The analysis of directed action verbs in dictionaries serves to more fully disclose the lexical essence, grammatical possibilities and pragmatic features of these words.*

Key words: *directed movement, verbs, dictionaries, lexicography, lexical meaning.*

Leksikografiyani tilning lug'at boyligini jamlash, ularni tavsiflash va tasniflash usullarini ishlab chiquvchi tilshunoslik sathi, lug'atlar esa tilda mavjud bo'lgan so'zlarni o'zida mujassamlashtirgan manbaa sifatida baholash xato fikr, albat-ta. Zero lug'at manbasi leksik birlikning grammatik ko'rsatkichlari, lisoniy imkoniyatlari hamda ularning nutqiy voqelanishini o'zida aks ettiradi. Shu jihatdan "leksikografiyani til tizimini modellashtirish pog'onalaridan biri deyish mumkin. Har bir leksikograf lug'at materialini, ya'ni til tizimidagi leksikani ma'lum bir shaklda tizimlashtirishga harakat qiladi. Leksikograf o'quvchi qarshisida til tizimini xaritalashtiradi" [1:29]. Lug'atlar tanlangan so'z haqida ma'lumot berishdan tashqari yana bir qator boshqa vazifalarni ham bajaradi. U o'z tarkibi orqali milliy madaniyatni namoyon etadi, tildagi o'zgarish va yangilanishlarni qayd etib boradi, leksik tarkibni zaxiralaydi, tarjima va tahrir ishida daliliy manba bo'lib xizmat

qiladi. Demak, lugʻatlar nazariy tilshunoslik xulosalarining amaliy aksi, sanab oʻtilgan qoʻshimcha vazifalari sabab ijtimoiy muhim vosita sifatida eʼtirof etilishi mumkin.

Yaratilgan har bir lugʻatning soʻz qamrovi, tuzilishi, tarkibi, saviyasi nazariy tilshunoslik tomonidan toʻplangan xulosalarini oʻzida aks ettiradi. Bundan anglashiladiki, hozirga qadar yaratilgan ingliz tilidagi lugʻatlar shu til nazariy tilshunosligining tez rivojlanganligini koʻrsatadi. Zero, leksikografik talqinning eng ilgʻor gʻoyalari va yondashuvlari dastlab aynan ingliz lugʻatlarida koʻzga tashlanadi. Ingliz lugʻatchiligiga rasman XVIII asrda Samuel Jonsonning “A Dictionary of the English Language” lugʻati asos soldi. Shu davrgacha boʻlgan lugʻatlar tizimsiz, qamrovi jihatdan tor va tuzilishida ham kamchiliklarga ega boʻlgan. Oʻsha davr hukumati homiyligida yaratilgan Jonson lugʻati zamonaviy lugʻatlar uchun ham asos vazifasini bajardi. Hozirga kelib ingliz lugʻatchiligi leksik tahlilning turli talqin va yondashuvlarini yaratdi. Natijada ingliz tili lugʻatlarining turi koʻpaydi, sifat darajasi va saviyasi koʻtarildi. Lugʻatchilik borasidagi izlanishlar natijasi oʻlaroq oʻquv izohli lugʻatlari, til tashuvchilari uchun izohli lugʻatlari, qisqa tarjima hamda izohli tarjima lugʻatlari, shuningdek, tezaurus lugʻatlar hamda korpuslar yaratildi. Har bir lugʻat turida leksema izohi, uning vazifaviy koʻrsatkichlari va nutqiy voqelanishi farqli omillarda yoritila boshladi.

Bevosita yoʻnalma harakat feʼllarining leksikografiyasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak talqinlardagi ikki asosiy yutuqni taʼkidlab oʻtmaslikning iloji yoʻq. Birinchidan, ingliz tilidagi feʼllarda zamon tuslanishi soʻz asosida fonetik oʻzgarishlarga sabab boʻlganligi uchun lugʻat maqola boshida yoʻnalma harakat feʼllarining tuslanishi haqida maʼlumot beriladi. Garchi misol keltirilgan feʼllar tuslanganda fonetik oʻzgarishlarga uchramasada maqolaning ushbu grammatik koʻrsatkichlari til tashuvchilari uchun ham aktualligini yoʻqotmaydi. Ingliz tilidagi feʼllar predloglar bilan kelganda ularda semik siljish roʻy berishi mumkin. Shu sababdan mualliflar ushbu yoʻnalma harakat feʼllarining barcha predlogli birikuvlarini ilova qilishadi. Frazali feʼldagi lisonda bilinar-bilinmas maʼno siljishi nutqiy voqelik kontekstida yanada yaqqol koʻzga tashlanadi.

Yuqorida taʼkidlanganidek, ingliz izohli lugʻatlarining izoh bayon uslubi oʻziga xos, buni yoʻnalma harakat feʼllari talqini misolida ham kuzatishimiz mumkin. Xoʻsh, izohlardagi joʻnlikning sababi nimada? Bir qarashda bunday joʻnlikka sabab ingliz leksikograflarining globallashuv trendlariga ergashganligida deb xulosa qilish mumkin. Yaʼni, har jabhada xalqaro muloqot tiliga aylangan ingliz tili materiallari asosan til oʻrganuvchi auditoriyaga moʻljallangan. Lugʻatlarga ham talab aynan shu auditoriyadan keltib chiqqanligi bois mualliflar ushbu guruh bilim, koʻnikmalariga

mos material taklif qilishga urinishadi, shuning uchun izohlar sodda tilda bayon etiladigandek. Biroq bu yanglish fikr. Ingliz leksikografiyasi tarixi shuni ko'rsataliki, ilk izohli lug'atlarning vazifasi avom va o'rta sinfga oid inglizzabnlarning tildan foydalanish samaradorligini oshirish, nutqiy meyorlarni tushuntirishdan iborat. Ular ilmiy-lingvistik doiraga mo'ljallanmagan. Izohlar "tilshunoslik tilshunoslik uchun" qabilidagi murakkab yondashuvdan holi. Hozirgi kunda yaratilayotgan izohli lug'atlar ham ayni shu yondashuv asosida shakllantiriladi va ushbu qulaylik lug'atdan foydalanuvchi auditoriyaning yosh, tafakkur va salohiyat jihatidan cheklab qo'ymaydi. Ingliz izohli lug'atlari turli yoshdagi, turli ijtimoiy kelib chiqishdan bo'lgan o'quvchilar talabini o'zining sodda bayon usuli bilan birdek qondiradi [2,3,4].

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran ingliz tilining xalqaro miqyosdagi ahamiyati kuchayib bordi. Bugungi kunga kelib har jabhadagi ilg'or texnologiyalar, olamshumul ilmiy kashfiyotlar, muhim ijtimoiy masalalar ingliz tilida muhokama qilinadi. Bu esa zamon bian hamnafas bo'lishni istagan har bir kishi uchun ingliz tilini o'zlashtirish zaruratini yaratadi. Ingliz tilshunoslari ham ushbu tendensiyaga javoban til o'rganish bazasini muntazam ravishda kengaytirib borishmoqda. Chunonchi, mavjud izohli lug'atlar bazasida ko'plab o'quv izohli lug'atlari yaratilmoqda. Albatta, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchi auditoriyaga mo'ljallangan o'quv izohli lug'atlari tuzilishi va tarkibiga ko'ra inglizzabonlar uchun mo'ljallangan izohli lug'atlardan farq qiladi – tafovutlarni yo'nalma harakat fe'llari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Anglashilgandek, ingliz tili izohli lug'atlarida yo'nalma harakt fe'llarining talqini lug'at turi, mo'ljallangan auditoriyasiga qarab farqlanadi. Inglizzabonlar uchun mo'ldallangan lug'atda leksemalarning izohi kengroq, etimologik ma'lumotlari keltiriladi. Ko'rib chiqilgan eng ommabop, eng keng tarqalgan o'quv lug'atlari sirasida nisbatan yuqori informativlik darajasiga ega lug'at Oksford izohli lug'atidir. Oksford izohli lug'atidan olingan maqola tahlilida anglashiladiki lug'atda leksemaning lingvomadaniy, pragmatik qirralarini namoyon etuvchi misollarning berilishi leksikografik manbaga qo'yilgan asosiy talabga javob beradi. Zero lug'at tilning leksik sathini qamrab olish bilan birga ushbu leksik sathning nutqiy parametrlarini, ularning nutqda voqelanish meyorlarini ko'rsatadi.

LEAP *verb* [li:p] [intransitive, transitive] to jump high or a long way + **adv./prep.** *A dolphin leapt out of the water. We leaped over the stream. leap something* *The horse leapt a five-foot wall.*

[intransitive] + **adv./prep.** to move or do something suddenly and quickly – *She leapt out of bed. He leaped across the room to answer the door. I leapt to my feet* (= stood up quickly). *They leapt into action immediately. (figurative) She was quick to leap to my defence* (= speak in support of me). *The photo seemed to leap off the page* (= it got your attention immediately). *His name leapt out at me* (= I saw it immediately).

[intransitive] **leap (in something) (from...) (to...)** to increase suddenly and by a large amount **SYNONYM** shoot up *The shares leapt in value from 476p to close at 536p. The company saw pre-tax profits leap to £14.5 million in 2004.*

Idioms somebody's heart leaps used to say that somebody has a sudden feeling of happiness or excitement *My heart leapt at the news. Her heart leaped with joy.*

jump/leap to conclusions | jump/leap to the conclusion that... to make a decision about somebody/something too quickly, before you know or have thought about all the facts *There I go again—jumping to conclusions.*

look before you leap (*saying*) used to advise somebody to think about the possible results or dangers of something before doing it. **Phrasal Verbs leap at** [5]

Izohli lugʻatning qiymatini uning informativlik darajasi belgilab beradi. Mukammal izohli lugʻatlarda soʻzlarning grammatik koʻrsatkichlari, etimologik maʼlumotlar, soʻzning qoʻllanish oʻrni, qoʻllanish chastotasi hamda uslubiy maʼlumotlar keltiriladi. Bu parametrlar nafaqat badii asarlardagi misollar, balki xalq ogʻzaki ijodidan maqollar, naqlar bilan boyitilishi lozim [6,7]. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida shu koʻrsatkichlardan faqat illyustrativ dalillash borasida ustunlikni koʻramiz. Lugʻatdagi misollar manbasi ilova qilingan, dalillar orasida tilning milliy koloritini koʻrsatib beruvchi jummalarni koʻramiz. Biroq grammatik va etimologik maʼlumotlarga aksariyat hollarda eʼtibor qaratilmagan.

Leksemalar haqida oʻquvchida toʻliq tushunncha shakllantirish uchun grammatik va etimologik maʼlumotlardan tashqari birikuv xususiyatlari, yaʼni nutqda qaysi soʻzlar bilan birika olishi, qaysi birlik bilan sintagmatik munosabatga kirishishi semantik jihatdan oʻrinsiz ekanligi haqida toʻxtalib oʻtish lozim. Zero bu kabi maʼlumotlar soʻzning pragmatik xarakteristikasini shakllantirishga koʻmak beradi, uni qoʻllash haqidagi nutqiy meyorlarni asoslab beradi. Nafaqat yoʻnalma harakat feʼllari, balki boshqa leksik-semantik guruh vositalarining qoʻllanish oʻrni, qaysi davrga mansubligi, nutqdagi qoʻllanish chastotasi haqidagi axborotning berilishi matn tahririni takomillashtirishda lingvistik-normativ asos boʻla oladi.

Leksemaning etiologiyasi haqida to'xtalish shart ekanligini bot-bot aytib o'tdik. Bunday ma'lumot tilshunoslar uchun zarur bo'lishi bilan birga o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan o'quvchilarga assotsiativ metodda lug'at sathini o'zlashtirish imkonini beradi. Ya'ni so'z asosi, qaysi tildan kirib kelganligi, yoki qadimiy o'zagi qanday bo'lganligi, vaqt o'tishi bilan leksema tarkibidagi fonetik o'zgarishlar qanday ro'y berganligi – tilning taraqqiy etish mexanizmlarini anglashga ko'mak beradi. Til modelini idrok etish, uning rivojlanish yo'lini anglab yetish esa, bilamizki, ushbu tilni pishiq o'zlashtirish asosi bo'ladi. Nafaqat yo'nalma harakat fe'llari, balki butun leksik sathni shunday qomusiy yondashuvda izohlash o'zbekzabon kishilar nutqini ravon qilishda leksik baza vazifasini bajara oladi.

Adabiyotlar:

1. Денисов П. Лексика русского языка и принципы её описания. – Москва: Русский язык. 1993. – 253 с.
2. Whittaker K. Types of Dictionaries // Whittaker K. Dictionaries. Sydney, 1966. P. 13-17;
3. Ступин Л.П. Теория и практика английской лексикографии. – Ленинград: Ленинград. ун-т, 1982. – 239 с;
4. Zgusta L. Manual of lexicography. – Praha: Academia, 1971. – 360 pp.
5. www.oxfordlearnersdictionaries.com
6. Денисов П. Об универсальной структуре словарной статьи // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – Москва: Русский язык, 1977. – 503 с.;
7. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
8. Tursunaliyevna, A. M. (2021, August). OCCASIONALISM AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 19-23).
9. Каламбет Е. Проявления антропоцентризма в современной отечественной лексикографии: на материале лингвистических словарей: дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 168 с.